

TARBIYANING YAPON MODELIDA SUN'IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARINING TAHLILI.

*R.X.Madaliyeva – Bojxona instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası
katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi raqamli texnologiyalarga bog'liq bo'lgan zamonaviy dunyo, kunsari kengayib borayotgan axborotlashgan jamiyat sharoitida yashamoqda. Ta'lim tizimini raqamlashtirilishi, bir tomondan o'qitish sifatini oshirishga xizmat qilayotgan bo'lsa, boshqa tarafdin yoshlarni axloqiy tarbiyasida ayrim muammolarni paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur maqolada muallif tomonidan ta'limga sun'iy intellekt texnologiyalarni tatbiq etish va uni tarbiya masalalari bilan uyg'unlashtirish bo'yicha yapon tajribasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, milliy tarbiya, Yaponiya, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, "Jamiyat 5.0", "Z - avlod", uyg'unlashtirish.

АНАЛИЗ ОСОБЕННОСТЕЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЯПОНСКОЙ МОДЕЛИ ВОСПИТАНИЯ.

Аннотация: Современный мир живёт в расширяющемся поле информационного общества, социально-экономический прогресс которого напрямую зависит от использования цифровых технологий. Цифровизация системы образования способствует повышению уровня обучения, но вместе с этим создаёт некоторые проблемы в нравственном воспитании молодёжи. В настоящей статье автор анализирует японский опыт внедрения технологий искусственного интеллекта в образование и гармонизацию его с вопросами

воспитания.

Ключевые слова: образование, воспитание, национальное воспитание, Япония, искусственный интеллект, цифровые технологии, “Общество 5.0”, “Z-поколение”, гармонизация.

Ma'lumki, yosh avlod har qanday millatning kelajagini belgilovchi salmoqli kuchdir. Shunday ekan, yoshlarning qobiliyati va salohiyatini samarali ro'yobga chiqarish, ularni qo'llab-quvvatlash hamda rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratish zamonaviy demokratik davlat faoliyatining muhim vazifalaridan biridir.

Bu ma'noda mamlakatimizda olib borilayotgan keng-ko'lamli islohotlar turli sohalarda, jumladan ta'lim-tarbiya yo'nalishida ham o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatib kelmoqda.

O'zbekistonda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonlari chuqur o'ylangan uzluksiz tizimdir. Uning maqsadi har bir insonga bolaligidan boshlab to ulg'ayib muayyan kasbga ega bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning to'laqonli shaxs-subyektiga aylanguniga qadar, jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishga, uning taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishga xizmat qilishdan iboratdir.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda o'ziga xos ta'lim-tarbiya modeli shakllangan bo'lib, u o'zida asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar va jahonning ilg'or tajribasini uyg'unlashtirgan.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda ta'lim-tarbiya jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tez rivojlanayotgan sohalarning biriga aylanib bormoqda. Axborotlashgan makon davrida esa bu soha innovatsion usullar va raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, milliy ta'lim tizimini sifatini oshirishga va uni yangi bosqichga ko'tarishga imkon yaratilyapti. Natijada milliy va xalqaro mehnat bozorlarida raqobatbardosh bo'lgan professional kadrlar va bilimli mutaxassislarni tayyorlovchi o'qitish modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Hozirgi paytda ko'p davlatlarning ta'lim muassasalarida elektron raqamli texnologiyalar va sunniy intellektni imkoniyatlaridan keng foydalanishga yo'naltirilgan innovatsion dasturlar ishlab chiqaradigan ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilmoqda. Ushbu nuqtayi nazardan Yaponiyaning tajribasi ham qiziqarli ham namunali hisoblanadi.

Yaponiyaning ta'lim tizimi so'ngi o'n yilliklarda nafaqat yuqori texnologiyalar bilan chambarchas bog'langanligi, balki amaliy unumdorligi bilan ham dunyo mutaxassislarining e'tiborini tortdi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimida o'ziga xos virtual aloqa muhitini shakllantirar ekan, yaponliklar ushbu jarayonda tarbiya masalalarini ham unutmaganlar.

“Quyosh chiqar” diyorining ta'lim tizimini o'rganish mahalliy pedagogika fani va amaliyoti uchun katta qiziqish uyg'otadi. Bunda e'tiborlisi shuki, Yaponiyada ta'lim islohotlari mamlakatda faol olib borilayotgan texnologik modernizatsiya va raqamlashtirish jarayonlar bilan uyg'unlashgan bo'lsa-da, uning tarbiya tizimida xalqning etnik qadriyatlari, milliy o'ziga xosligi, ma'naviy an'analari va jamoaviylik ruxi saqlanib qolgan [1]. Demak, ta'lim-tarbiyaning yapon modeli egiluvchanligi va u mamlakatda kechayotgan siyosiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga moslashuvchan ekanligi haqida xulosa qilsak mubolag'a bo'lmaydi.

Yaponiyada zamonaviy axborot texnologiyalar orqali raqamlashtirish jarayonlari qisqa tarixiy davr mobaynida jamiyat hayotining barcha sohalarida tatbiq etilganligiga qaramay mukammallikka intilish, insonning tabiat bilan jismonan va ma'naviy aloqadorligini his qilish, yoshlikdan ijtimoiy birdamlikni shakllantirish, burch va mas'uliyatni yuksaltirish, ustoz-murabbiy (“sensey”)ning yuksak axloqiy mavqesiga sodiq qolish kabi an'analar yapon milliy pedagogikasining doimiy o'zgarmas imperativlarga aylangan [2].

Yaponiyaning ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish utgan asrning 80-chi yillarida “e-learning” - “elektron o'qitish” shaklida boshlangan.

1984-yilda mamlakatda kengayib borayotgan axborot jamiyatining ehtiyojlariga javob tariqasida “uchinchi maktab islohoti” o‘tkazildi. Davlat ta’lim qo‘mitasi ta’limga axborot texnologiyalarni tatbiq etish, xususan, maktablarni kompyuterlashtirish masalalarni hal qilish bilan band bo‘lgan. Bu paytda “Efirda universitet” deb nomlangan masofaviy o‘qitish tizimi joriy etib radio va televideniye orqali ma’ruza mashg‘ulotlari namoyish etilgan. Ushbu ta’lim shaklini tanlagan talabalar besh yillik o‘qishdan so‘ng imtihon topshirib diplom olganlar [3].

Hozirgi davrda Yaponiya raqamli texnologiyalar bozorida eng yirik ishlab chiqaruvchi bo‘lib ta’lim muhitini ilg‘or sun‘iy intellekt loyihalari bilan integratsiyalashga qaratilgan murakkab ilmiy-tadqiqotlarni faol olib bormoqda. Bu esa mamlakatni innovatsion taraqqiyot yo‘lida shaxdam qadamlar quyayotganligidan yana bir bor dalolat beradi.

O‘zining raqamli platformalar, neyrotarmoqlar, robotlashtirilgan loyihalar va mobil qurilmalar uchun dasturiy ta’minotlariga ega bo‘lgan Yaponiya, hozirgi davrda sun‘iy intellekt infratuzilmasini ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Bu yerda sun‘iy intellekt texnologiyalarini jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib borishi va uni imkon darajada qulaylashtirishga yo‘naltirilgan siyosat olib boriladi. Bu borada, yapon hukumati yangi ijtimoiy-texnik inqilob sharoitida 2016-yilda jamiyatni barqaror rivojlanishi va farovonligini oshirishga qaratilgan “Jamiyat 5.0” yoki “O‘ta aqlli jamiyat” (“Super Smart Society”) deb nomlangan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot strategiyasini qabul qilgan. Mazkur strategiyada 2030-yilgacha raqamli muhitni jismoniy makon bilan to‘laqonli integratsiyasini amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish, bir tomondan, jamiyatning ko‘plab ehtiyojlarini samarali qondirishga qulay bo‘lsa-da, ikkinchi tomondan raqamli texnologiyalar inson va jamiyat hayotiga me’yoridan ortiq kirib borishi turli muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda (masalan, “texnologik qaramlik”, insonning malakasi, qobiliyati va umuman faolligining

“keraksizligi” yoki “cheklanishi”, yaratilayotgan asarlarni (inson yoki SI chizgan rasm) muallifligini to‘g‘ri aniqlash, ilm-fanda ko‘chirmachilik (plagiat) muammosi). Bu kabi murakkab masalalar zamonaviy yapon ta’lim tizimida ham namoyon bo‘lib, SI texnologiyalardan yoshlar tarbiyasida qay darajada foydalanish mumkinligi chegaralarini belgilash zarurligini taqozo etmoqda.

Yapon jamiyatini tashvishga solayotgan yana bir muammo shundaki, “Jamiyat 5.0” o‘zining rang-barang raqamli texnologiyalari va sun’iy intellekti bilan

“Z - avlodi”, ya’ni “raqamli inson”, “gadgetlar avlodi”, “Copy&Paste” avlodi deb nomlangan yangi ijtimoiy guruhlarni paydo bo‘lishiga olib kelgan.

2007-yilda Z-avlodi yoshlarida “raqamli aql-zaiflik” (Digital Dementia) kabi fenomenini paydo bo‘lishi qayd etildi. Va bu shunchaki hodisa emas, balki tibbiy tashxis deb tan olingan. Shifokorlar planshet, smartfon va turli gadgetlardan doimiy foydalangan bolalarda miyaning faoliyatida organik o‘zgarishlarni aniqlanganlar va aynan shu sababdan yoshlarda gapirish, ko‘rish, diqqat qilish, ongli qarorlar qabul qilishda buzilishlar sodir etilganligi kuzatilgan [4].

Mazkur muammolarga yechim topish maqsadida bugungi kunda yapon hukumati oldida turgan muhim vazifalardan biri bu ta’lim-tarbiya sohasida sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, total raqamlashtirish orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni prognozlashtirish, kiberxavfsizlik, onlayn-gigiyena va elektron dasturlarni ishlatishning huquqiy-axloqiy qoidalarini ishlab chiqish [5].

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, asrlar davomida shakllangan an’anaga ko‘ra Yaponiyaning ta’lim muassasalarida o‘qitishning maqsadi yoshlarni nafaqat bilimli qilib o‘stirish, balki ularga to‘g‘ri tarbiya berishdadir. Bu asosda, bejiz emaski, xalq orasida qadimdan “yaxshi olimdan ko‘ra, yaxshi inson bo‘lish afzaldir” degan ibora mashhur. Bugungi kunda ham, dunyo texnologik taraqqiyot asrda yashar ekan, yangi davrning asosiy xususiyati bo‘lgan yuqori texnologiyalar makoniga jamiyat ko‘r-ko‘rona emas, balki ongli moslashishi zarurdir.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. М.Таруми. Воспитание межкультурной толерантности молодёжи в Японии. // Вестник СПбГУКИ, №4(13), 2012. С.-108
2. А.Нуритдинова. Модернизация и традиционализм в системе образования Японии. // Школьные технологии. №4, 2012. С-85
3. Н.Богомазова. Особенности цифровизации образования в Японии: генеративный искусственный интеллект и “виртуальная школа”. // Гуманитарные ведомости ТГПУ им. Л.Н.Толстого. №4(52), 2024. С.-52
4. Сайкина Г. К. Поколение Z: цифровой суперинтеллект или цифровое слабоумие? // «Общество 5.0»: парадоксы цифрового будущего: VII Садыковские чтения: материалы Междунар. науч.-образоват. конф. (Казань, 15-16 ноября 2019 г.). Казань: Изд-во Казан.ун-та, 2019. С. 194–202.
5. Н.Богомазова. Тенденции развития искусственного интеллекта в Японии: «Общество 5.0» и статус «Электронное лицо» // Гуманитарные ведомости ТГПУ им. Л. Н. Толстого № 2 (50), июль 2024 г. С.-59